



JINOYATLARNI OCHISHDA PORTRET EKSPERTIZASINING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

Matirzayeva Shukurjon Jumaboy qizi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 328-guruhan kursanti

Annotatsiya: Maqolada portret ekspertizasi tushunchasi, portret ekspertizasida qo'llaniladigan metodlar, gabitologiya tushunchasi, og'zaki portret, odamlarni tashqai qiyofa belgilari asosida identifikatsiya qilish, uning zamonaviy imkoniyatlari va hozirda qo'llanilayotgan texnikalar-taktikalar, portret ekspertizasida uchrayotgan kamchiliklar va ularni oldini olish choralari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Portret, tashqi qiyofa, portret ekspertizasi, gabitologiya, og'zaki portret, ekspert xulosasi.

❖ “Agar hamma birdek jon kuydirib, oilalar muammolaridan to‘liq xabardor bo‘lib, ularni hal etishga ko‘maklashgan, jinoyatchilikning barvaqt oldini olganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo‘lardi. Afsuski, jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishlash tizimidan voz kecha olmayapmiz. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bu faoliyatga ko‘rsatkichlarni oldingi davr bilan taqqoslash orqali baho berib kelmoqda. Aslida bitta bo‘lsa ham jinoyat bo‘lgani hammamizni tashvishga solishi kerak”, dedi **Shavkat Mirziyoyev**.¹

So‘nggi yillarda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilishga, shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan samarali ishlar amalgalashirildi. Shu bilan birga, jinoyat sodir etishda zamonaviy texnologiyalar va usullarni qo’llash butun dunyoda tobora ommalashib borayotganligini inobatga olib, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish uchun ayblilagini sudda ilmiy-texnik jihatdan asoslangan ishonchli dalillar bilan isbotlash jarayonlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda.² Jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha o’tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirdi, tergov va sud harakatlarida dalillarni to‘plashda zamonaviy fan va texnikaning ilg‘or yutuqlarini, xususan kriminalistik ilmiy usul va vositalarni qo’llash amaliyotini yangi bosqichga olib chiqish lozim. Ichki ishlar organlari jinoyat-qidiruv va tergov xizmatlarining amaliyotida turli xil jinoyatlarni ochish va tekshirish jarayonida turli foto- va videotasvirlarda bir yoki boshqa-boshqa shaxslar tasvirlanganligini, jinoyat ishi bo‘yicha aniqlangan yoki olingan hamda aynanligini aniqlash uchun taqdim etilgan fotosuratda shaxsi noma'lum murdaning tasviri tushirilganmi yoki bo‘lmasa birorta ish bo‘yicha aniqlangan yoki topilgan bosh suyagi fotosurati tadqiqotga taqdim etilgan

¹Shavkat Mirziyoyev 27.07.2018-yil

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida” PQ-122-sod 08.02.2022



shaxsga tegishliliga oydinlik kiritishkabi savollarni aniqlash zarurati tug‘iladi. Bunday savollarga javob topish maqsadida portret ekspertizasining ko‘rsatmalari hamda ilmiy-texnik qoidalaridan foydalaniladi. Yuqorida aytilgan huquqshunoslik sohasini rivojlantirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish, amaldagi faoliyatni yanada takomillashtirish vazifalari huquqning kichik, ammo o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan kriminalistik ekspertizalar sohasiga ham tegishlidir. Kriminalistik ekspertizalarning turlari xilma-xil bo‘lib, ularning yosh, barcha ilmiy, amaliy va nazariy xilvatgohlariga hali yetib borilmagan sohalari juda ko‘p. Ana shundan turlardan biri – portret ekspertizasidir.³

Portret ekspertizasi kriminalistik texnikaning bir tarmog‘i sifatida nazariy qoidalarga asoslangan, kriminalistik amaliyatda odam tashqi qiyofasini yig‘ish, o‘rganish va jinoyatchilikka qarshi kurashda foydalanishning vosita va metodlaridan iborat. Portret ekspertizasining ilmiy-nazariy asoslari bo‘lib izlar, belgilar, qidiruv haqidagi kriminalistik ta’limotlar, kriminalistik ro‘yxatga olish haqidagi ta’limotlar, kriminalistik aynanlikni aniqlash nazariyasi va hokazolar xizmat qiladi.

Portret ekspertizasining obyektlari quyidagilardir:

- odam tashqi qiyofasining tushunchasi, tuzilishi va xossalari, uning element va belgilari tizimi, odam tashqi qiyofasini shaxsnинг kriminalistik aynanligini aniqlash bo‘yicha tabiiy-ilmiy ildizlari;
- odam tashqi qiyofasining turlicha aks etishdagi tasvirlari, ular- ning tizimi va tavsifi, ulardan kriminalistik amaliyatda foydalanish imkoniyatlari;
- odam tashqi qiyofasi haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, o‘rganish va foydalanishning umumiyligini qonuniyatlarini hamda ilmiy-texnik vosita va metodlari tizimi;
- shaxsni tashqi qiyofa belgilariga ko‘ra kriminalistik aynanligini aniqlash metodikasi.

Zamonaviy portret ekspertizasining imkoniyatlari juda katta, jumladan:

- og‘zaki portretlar tuzish;
- signaletik fotosuratlar tuzish;
- subyektiv portretlar tuzish;
- o‘limdan keyingi niqoblarni tayyorlash;
- bosh suyagi bo‘yicha shaxsning qiyofasini plastik qayta tiklash;
- tashqi qiyofaning barcha mavjud tasvirlari bo‘yicha aynanligini aniqlash va hokazo. Odam tashqi qiyofasining belgilariga odam tanasi va a’zolarining anatomik tuzilishi, qad-qomati, yurish-turishi, jestikulyatsiyasi, artikulatsiyasi, mimikasi, qo‘l va oyoq terisining papillyar naqshlari, tish apparatining xususiyatlari, ovozi, tili, yozma nutqi va hokazolari kiradi.

Hozirda tadqiqot predmeti – odam tashqi qiyofasining u yoki bu belgilari hisoblangan kriminalistik bilimlarning tizimi rivojlanib bormoqda. Masalan, barmoqlarning papillyar naqshlari daktiloskopiya, ovozlar – fonoskopiya, yozma nutq va xatlar – xatshunoslik tomonidan o‘rganiladi. Oddiy ko‘z bilan ko‘riladigan va odam

³Nurumbetova S.A. Portret ekspertizasining zamonaviy imkoniyatlari



tashqi qiyofasining qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatuvchi belgilar, muayyan shaxsni yoki uning ayrim elementlarini alohida ajratish, tanib olish imkonini beradi hamda tashqi qiyofa haqidagi kriminalistik bilimlar –gabitologiyaning tadqiqot predmeti hisoblanadi. M.V.Saltevskiy ushbu belgilarni «tashqi qiyofaning xususiy yoki gabitologik (lotincha «habitus» – tashqi ko'rinish, tashqi qiyofa, grekcha «scopeo» – ko'raman, qarayman) belgilari» deb ataydi. Bu belgilar tananing va uning ayrim a'zolarining, odamning yurish-turishi, jestikulyatsiyasi, artikulatsiyasi, mimikasi va ularning elementlari hamda anatomik tuzilishining xususiyatlarini ifodalaydi.

«Gabitologiya» atamasi lotincha «habitus» va grekcha «logos» so'zlaridan olingan bo'lib, «tashqi qiyofa» va «tushuncha», «bilim» ma'nolarini anglatadi. 1973-yilda V.A.Snetkov odam tashqi qiyofasi haqidagi bilimlarni gabitoskopiyaga deb atashni taklif etdi. Uning fikricha, shunday nomlash predmetni aniq ifodalaydi, chunki «odam tashqi qiyofasining o'rganilayotgan belgilari doirasini ko'z bilan ko'rib bo'ladigan belgilar yordamida aniq belgilaydi, o'rganish predmetining muhim tomonlarini aks ettiradi, kriminalistik texnikaning tez rivojlanib borayotgan fonoskopiyasi, odorologiya va boshqa sohalari bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi»

Odam tashqi qiyofasi haqidagi kriminalistik bilimlarning vujudga kelishi XIX asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Ushbu asrning 80-yil-larida fransuz kriminalist-olimi A.Bertilyon odam tashqi qiyofasi element va belgilarini ta'riflashning maxsus metodikasini ishlab chiqdi va uni «og'zaki portret» deb nomladi.

Keyingi o'n yilliklar davomida ushbu metodika doimiy ravishda takomillashib bordi va bizga kelib odam tashqi qiyofasi element va belgilarini maxsus atamalar yordamida ta'riflashning ilmiy tasniflangan tizimidan iborat bo'ldi. «Og'zaki portret» gabitologiyaning barcha bo'limlarini o'zaro bog'lovchi zanjir hisoblanadi. «Og'zaki portret» metodikasining, umuman, gabitologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlar safiga G.Gross, R.A.Reyss, S.M.Potapov, I.N.Yakimov, N.V.Terziyev, P.Shabo, A.A.Gusev, M.V.Saltevskiy, V.A.Snetkov, A.M.Zinin, N.S.Polevoy va boshqalarni kiritish mumkin.⁴

Odam tashqi qiyofasining aks etishlari odam tashqi qiyofasining moddiy va ideal (xayoliy) izlari hisoblanadi. Kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan manbalar sifatida ushbu moddiy va ideal izlar aks etish turlari bo'yicha tasniflanadi.

1. Moddiy izlar va ularning nusxalari:

- bevosita ta'sirlashish izlari;
- niqoblar va quyma nusxalar (gipsli va boshqa modellar);
- foto-, kino-, videoonusxalar;
- bosh suyagi va skeletning boshqa suyaklari (odamning suyak qoldiqlari).

2. Subyektiv tasvirlar va ularning moddiy nusxalari:

- odam – shohid;

⁴Снетков В.А. Габитоскопия. – Волгоград, 1979. – С.4-5.



– tashqi qiyofani tizimlashgan yoki ixtiyoriy shaklda ta’riflashlarini qamrab olgan (protsessual va noprotsessual) hujjatlar;

– hisob kartochkalari va kriminalistik hisoblarning maxsus tizimlari;

– badiiy, chizilgan va kompozitsion (sintetik) portretlar

Gabitoskopiya odam tashqi qiyofasini o‘rganish uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

Anatomiya metodlari – odam tanasi va tashqi qiyofasining tuzilish elementlarini yaxlit holda o‘rganish, inson organizmining ichki va tashqi tuzilishi elementlarining o‘zaro bog‘liqligidagi qonuniyatlarini o‘rganish uchun;

Antropologiya, antroskopiya va antropometriya metodlari – turlicha antropologik guruhlarga tegishli bo‘lgan odam tanasining tashqi tuzilish elementlarini, tananing ichki va tashqi tuzilish elementlarining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun;

Psixologiya va fiziologiya metodlari – odam tashqi qiyofasiga ta’sir qiluvchi, ularni harakatlantiruvchi malaka va ko‘nikmalarni o‘rganish uchun;

Tovarshunoslik metodlari – tashqi qiyofaning kiyim, poyabzal, mayda taqib yuriluvchi jihozlarni o‘rganish uchun;

Sartaroshlik sohasi, gigiyena va kosmetika metodlari – odam soch qoplamlari, yuz terisi kabi elementlarni o‘rganish uchun;

Matematik statistika metodlari – odam tashqi qiyofasining element va belgilarini uchrashish darajasini aniqlash va o‘rganish uchun.⁵

IIOning vakolatli xodimlari tomonidan o‘tkaziladigan operativ-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarida jinoyat sodir etib yashiringan, jazoni o‘tash joylaridan qochgan, bedarak yo‘qolgan shaxslarni, shaxsi noma’lum murdalarni va shu kabilarni qidirishga va aniqlashga tez-tez zarurat tug‘iladi. Ichki ishlar organlarining amaliy faoliyatida odam tashqi qiyofasini ta’riflashning eng ko‘p tarqalgan turi – «og‘zaki portret» deb ataluvchi maxsus, tashqi qiyofani standart atamalar orqali ta’riflash metodi hisoblanadi.

Odam tashqi qiyofasining belgilari xususiy (anatomik va funksional) hamda yo‘ldosh belgilari (kiyimlar va mayda taqib yoki olib yuriluvchi buyumlar belgilari)ga bo‘linadi. **Anatomik belgilar** – odam tanasi tuzilishining belgilari. Anatomik belgilar deganda tashqi qiyofa elementlari, shakl, kattalik, o‘lcham, holati va joylashishi, rangi va boshqa belgilari tushuniladi. **Funksional belgilar** – odam hayotiy faoliyati va organizmining ayrim funksiyalarining belgilari. Bunday belgilar odamning odatlari vaholatini ifodalaydi. Funksional belgilar deganda odamning yurish-turishi, qomatini tutishi, ovozi, tana harakati shakli va hokazolar tushuniladi.⁶

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar rivojlanganligi tufayli ichki ishlar organlari xodimlarining ham faoliyati yengillashib bormoqda ya’ni shaxsni identifikasiya qilish xususiyatiga ega kameralarning ko‘payotgani turli xil jinoyatlarni oldini olishga yoki bo‘lmasam sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan ochishga yordam

⁵Зинин А.М. Криминалистическое описание внешности человека (функциональные и сопутствующие элементы и признаки): Справочное пособие

⁶Odam tashqi qiyofa belgilari haqida qo‘llanma.



bermoqda. Polefeys dasturi yordamida shaxsni identifikasiya qilish tezda amalga oshirilmoqda.